



O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi

“Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir
ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari
to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni mazmun-mohiyati



2022-yil 7-mart



“Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni qabul qilindi

2022-yil 1-sentyabrdan

Byudjet tashkilotlaridan boshqa barcha yuridik shaxslarda **oxirgi 6 oyda uzluksiz ish staji bo‘lgan ayollarga** har oy uchun minimal iste‘mol xarajatlari miqdoridan kelib chiqib byudjet hisobidan **homiladorlik va tug‘ish nafaqasi** to‘lanadi



2022/2023-o'quv yilidan



- OTM, tyexnikum va kollejlarda, sirtqi va kechki ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlar kontraktlarini to'lash uchun **7 yilga foizsiz kredit berish uchun** banklarga byudjetdan har yili **1,8 trillion so'm** yo'naltiriladi
- davlat OTMlarida magistraturada o'qiyotgan **barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari qoplab beriladi** va bunga har yili kamida 200 milliard so'm ajratiladi
- xorijiy OTMlarga bakalavriat uchun – 50 nafar, magistratura uchun – 10 nafar xotin-qizlarga har yili **“El-yurt umidi” jamg'armasi orqali qo'shimcha grantlar** ajratiladi

2022/2023-o'quv yilidan



- har yili **2 100 nafar** ijtimoiy ehtiyojmand oila vakillari, yetim yoki ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba xotin-qizlarning **ta'lim kontraktlari mahalliy byudjetdan to'lab beriladi**
- mutaxassisligi bo'yicha kamida **5 yil mehnat stajiga ega**, lekin oliy ma'lumotga ega bo'lmagan **500 nafar xotin-qizlar** har yili Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tavsiyanomalariga asosan davlat OTMlariga umumiy kvotadan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq kontrakt asosida o'qishga qabul qilinadi
- davlat ilmiy tashkilotlari yoki OTM doktoranturasiga xotin-qizlar uchun har yili **kamida 300 tadan maqsadli kvota** ajratib boriladi



Xotin-qizlarga dizayn, to'qimachilik, axborot texnologiyalari, tarmoqlar iqtisodiyoti, marketing va talab yuqori bo'lgan boshqa ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim beradigan **ALOHIDA UNIVERSITET OCHILADI**

Har yili mart oyida amaliy innovatsion loyihalar bo'yicha **"OLIMA AYOL" TANLOVI O'TKAZIB BORILADI**

Qo'mita huzurida **"OLIMA AYOLLAR JAMIYATI" TUZILADI** va unga xotin-qizlarni amalda qo'llab-quvvatlash va yanada rag'batlantirish uchun **50 MILLIARD SO'M** ajratiladi



FARMONGA KO'RA

Qishloq joylaridagi ayollarni kasbga o'qitish, tadbirkorlikka jalb qilish va ish bilan ta'minlash maqsadida 2023-yildan har yili nodavlat tashkilotlarga **BHMning 7 ming baravari miqdorigacha grantlar ajratiladi**

Davlat boshqaruvi akademiyasida rahbar xotin-qizlarni tayyorlash bo'yicha alohida o'quv kurslari tashkil etiladi hamda har yili **kamida 100 nafar xotin-qizlar o'qitiladi**

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida xotin-qizlarning biznes-loyihalarini moliyalashtirish uchun **2022-yilda qo'shimcha 1 trillion so'm ajratiladi**




2022-yil 1-apreldan

2022-yilda subsidiyalarning kamida **40 foizi xotin-qizlarga yo'naltiriladi**

Ijarada turgan "Ayollar daftari"ga kiritilgan ehtiyojmand xotin-qizlarga ijara to'lovining 50 foizi, ko'pi bilan **500 ming so'mgacha kompensatsiya beriladi**

tadbirkorlikni yangi boshlayotgan xotin-qizlarga ajratilayotgan subsidiya miqdori **7 million so'mdan 10 million so'mga oshiriladi**

"Hunarmand" uyushmasi qoshidagi hunarmandchilik markazlarida kamida **40 foiz tadbirkor xotin-qizlar tomonidan** ishlab chiqarilgan mahsulotlar joylashtiriladi



2022-yil 1-apreldan

boquvchisini yo'qotgan xotin-qizlarning:

to'liq quvvat bilan ishlamayotgan davlat bog'chalariga **2 yoshdan 3 yoshgacha** bolalarni pullik xizmat ko'rsatish shaklida qabul qilishga ruxsat beriladi

kechki smenada xotin-qizlar ishlaydigan korxonada va tashkilotlar o'z huzurida bog'cha tashkil qilganda, ulardagi tarbiyachilarning ish haqi byudjetdan qoplab beriladi

• farzandlari davlat bog'chalariga to'lanadigan ota-onalar badalidan ozod qilinadi

• 3 yoshgacha farzandlari uchun nodavlat bog'chalarga byudjetdan subsidiyalar ajratiladi

Aliment to'lashdan bo'yin tovlayotgan va qidiruvga e'lon qilingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar MIBning rasmiy veb-saytlarida joylashtiriladi va davlat OAVlarida tarqatiladi

Aliment to'lovchining boshqa qarzdorligi bo'lganda, qarzdordan undirilgan mablag'lar aliment to'lovlari bo'yicha qarzdorlik to'liq qoplangandan so'ng boshqa qarzlarga o'tkaziladi

**QUYIDAGILARNI
BELGILOVCHI QONUN
ISHLAB CHIQLADI:**



aliment bo'yicha qarzdorlik bartaraf etilgunigacha:

- qarzdorning transportini boshqarish huquqini vaqtincha cheklash
- qarzdorga litsenziya va ruxsat berish xususiyatiga ega bo'lgan davlat xizmatlarini vaqtincha ko'rsatmaslik

aliment bo'yicha qarzdorlik mavjudligi nikoh tuzish uchun monelik qiladigan holat sifatida belgilanadi

FARMONGA KO'RA

- MIB huzurida “**Aliment to'lovlari**” davlat maqsadli jamg'armasi tashkil etiladi va unga 50 milliard so'm ajratiladi
- Aliment to'lovchidan **3 oyda aliment undirish imkoni bo'lmaganda** jamg'armadan aliment to'lovlari to'lab berilad hamda keyinchalik qarzdordan sud qarorisiz majburiy tartibda undirib olinadi
- Oilaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan oilalar uchun “**Ibratli oila**” ko'krak nishoni ta'sis etildi va u 15-may – Xalqaro oilalar kunida topshiriladi



**E'tiboringiz
uchun rahmat!**